

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

KICHIK LIRIK SHAKLLAR HAQIDA BA‘ZI MULOHAZALAR

G.Doshanova

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti*

Annotatsiya: Bu maqolada zamonaviy shoirlardan biri Mahmud Toir lirikasida to‘rtlik shakllari va ularda an‘ana va tajriba, yangilanish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: to‘rtlik, badiiy shakl, poetika, an‘ana, tajriba, izlanish.

Hozirgi o‘zbek she‘riyati rivojiga munosib hissasini qo‘shib kelayotgan shoirlarimizdan biri Mahmud Toir ijodi serqirraligi va juda qiziqish uyg‘otishi bilan alohida e‘tiborimizni jalb qiladi. Shoir poeziyasida doston, poema va hokazo lar bilan birgalikda, kichik lirik shakllardagi she‘rlar ham alohida o‘rin egallaydi. Shu bois, biz bu maqolamizda shoir ijodida keng o‘rin olgan kichik lirik shakllardan biri to‘rtliklar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, mumtoz poetika an‘analari, ularning rivojlantirilishi masalalari haqida fikr yuritmoqchimiz.

Professor Qozoqboy Yo‘ldoshev kichik lirik shakllarning umumiy jihatlariga e‘tibor bergan holda quyidagicha fikrlarni bayon qiladi: «Keyingi vaqtda milliy nazmchiligimizda to‘rt, uch, ikki va bir satrli qisqa she‘r namunalari sezilarli darajada ko‘paydi. O‘zbek qisqa she‘riyati shakliy chegaralar, an‘anaviy qoliplardan qutulishga urinishning samarasi o‘laroq paydo bo‘lganligi uchun ham unda xokku, tanka, to‘rtlik, ruboiy yoki syaoshilar singari qat‘iy talabalar tizimidan voz kechilgan. Istiqlol she‘riyatida “Go‘rlar qisir – tug‘ishdan qolgan”, “Anorlar dard kabi yorilar” (Faxriyor), “Seni deya sensiz yashadim”(Ulug‘bek Hamdam) singari bir misrali, “Erk choyshabmas, Ko‘ylakdir”, “She‘r to‘qiyman o‘rgimchak kabi”, “Muhabbatning tolalaridan” singari ikki qatorli mustaqil she‘rlar (Faxriyor) paydo bo‘ldi. Kunchiqar mamlakati she‘riyatidan o‘zlashtirilgan uchliklarning turli variyatsiyalari dunyoga keldi. Xokkularni B.Ro‘zimhammad o‘zgacha, Rauf Parfi boshqacha yo‘sinda, o‘n bir, o‘ttiz uch va to‘qson to‘qqiz mustaqil uchlikdan iborat tasbih tuzgan Farida Afro‘z esa tamomila bo‘lakcha usulda qo‘llaydi. Azim Suyunning to‘la bo‘lmagan besh qatordan iborat qayirmalari kichik she‘rda katta tuyg‘u va teran fikrni ifodalay olgani bilan o‘qirmanlarning e‘tiborini tortadi»[1;103-104]. Darhaqiqat, bu fikrni shoir Mahmud Toir ijodida ham kuzatish mumkin. Shoir she‘riyatida ham to‘rtliklarning sara namunalari mavjud. Masalan:

Oftobning alami kuymagan jonda,
Bulbulning alami suymagan jonda.
Shabnamni sahroga sochmagin, Mahmud,
Iymon nima qilsin to‘ymagan jonda.[2;288].

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Mazkur to‘rtlikda insonning bag‘ri keng bo‘lib, atrofida qilargalarga yaxshi munosabatda bo‘lishi, halol mehnat qilishi, shuningdek, insonning bu dunyoda bajargan savobli ishlari u dunyo uchun iymonli bo‘lishga harakat qilishi antiteza usulida bayon qilingan. Chunki, shoir bu fikrlarni bevosita to‘g‘ri ma‘noda emas, balki unga qarama-qarshi so‘zlar bilan kontrast tarzda ifodalagan. Ya‘ni, insonning muammo va qiyinchiliklarga bardoshli bo‘lishini «Oftobning alami kuymagan jonda» desa, odamning yon-atrofdagilar bilan yaxshi munosabatda bo‘lishini «Bulbulning alami suymagan jonda» deb ifodalaydi, insonning qachonki ko‘ngli to‘q bo‘lsagina savobli ishlarni qilishini, agarda ko‘ngli to‘q bo‘lmas ekan savobli ishlarni bajara olmasligini «to‘ymagan jon» metaforasi orqali aks ettirilgan. Shuningdek, shoir she‘rda o‘z ismini keltirish bilan «Shabnamni sahroga sochmagin» deyilgan uchinchi misrada keng fe‘lli, zahmatkash insonlarning ko‘p bo‘lishini xohlovchi lirik qahramon, hayotda bunday odamlar kam bo‘lsa, unda qanchalik ko‘p aytganimizning befoyda ekanligi, keng sahroga suv yetkazib bo‘lmasligi kabi tushuncha va fikrlarni bir tomchi namli suv metaforasi misolida tasvirlaydi.

Shu o‘rinda shoir to‘rtligida mumtoz Sharq she‘riyatidan o‘tib kelayotgan badiiy an‘analarning saqlanganligining ham guvohi bo‘lamiz. “...lirik asarlarning oxirida muallif taxallusining qo‘lanilishi mumtoz she‘riy shakllar uchun turg‘un an‘anadir. Ba‘zi zamondosh shoirlar, Maxtimquli kabi mumtoz shoirlar ijodidan ilhomlansa ham, barmoq vaznida yozilgan she‘rlari oxirida taxalluslarini qo‘llamaydilar. Bunday adabiy hodisa dunyo adabiyotida ham ko‘zga tashlanmaydi. Binobarin, shu o‘rinda, she‘r oxirida taxallusini yoki o‘z ismini qo‘llash holati yuqoridagi she‘rda mavjudligini e‘tirof etishimiz joizdir. To‘g‘ri, o‘zbek she‘riyatida mumtoz an‘analarni inobatga olgan holda o‘z ismi va taxallusini mumtoz an‘analarga bog‘liq bo‘lmagan barmoq vaznida yozilgan she‘rlarda qo‘llanilishi O‘zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir ijodida uchraydi”[3].

Darhaqiqat, olimlar e‘tirof etganidek, mumtoz adabiyot tizimidagi bunday an‘ana Mahmud Toir to‘rtliklarida badiiy izlanishlar natijasi o‘laroq yangilanish tarafga rivojlantirilganligining guvohi bo‘lamiz. Masalan, yuqorida tahlil qilingan to‘rtlikning uchinghi misrasida “Shabnamni sahroga sochmagin, Mahmud” tarzida keltirilib, lirik qahramon pand-nasihatlarini birinchi navbatda o‘ziga qaratib, umuminsoniyat uchun muhim bo‘lgan fikrlarni yuzaga chiqaradi. Shu o‘rinda mumtoz an‘analarga yangilik kiritib, o‘z ismini she‘rning uchinchi qatorida keltiradi. Mumtoz she‘riyatda esa, bu dastur ko‘pincha she‘rning oxirgi bandi boshida yoki oxirida qo‘llanilishi ko‘zga tashlanadi.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Umuman, Mahmud Toir lirikasida kichik lirik shakllardan biri to‘rtliklar hajm jihatdan ixcham bo‘lsa ham, ularda teran ma’no va mazmun mujassam, shuningdek, mumtoz klassik an’analarning davom ettirilganligi va rivojlantirilganligi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Orzibekov R. O‘zbek she’riyati janrlari va poetikasi.– S., 1999.
2. Orazimbetov Q. Hazirgi qoraqalpaq lirikasida kerkem formalardan evolyutsiyasi ham tipologiyasi.– Nukus.: Bilim, 2004.
3. Gaylieva O. Mustaqillik davri turkiy xalqlar lirikasida shakliy izlanishlar va ularning tipologiyasi (o‘zbek, qoraqalpoq va turkman lirikasi misolida). Dokt.diss. avtoreferati – N., 2019.
4. Baltayeva, Z. S. (2020). IDEOLOGICAL BASIS IN ERKIN VOKHIDOV'S LYRICS: ATTITUDE AND INTERPRETATION. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (2-5), 88-90.
5. Berdibayev, Ulug'bek. "Tradition and originality in the context of Turkish literature (On the example of the creations of abdulla oripov and ibroyim yusupov)." *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH* 10.4 (2021): 266-270.
6. Farhodovna T. L. THE ROLE OF FURKATS' CREATION IN THE EMERGENCE OF A NEW UZBEK POETRY // *Восточно-европейский научный журнал*. – 2020. – №. 3-4 (55). – С. 4-5.
7. Ugli, Boltaboyev Omonboy Yoldosh. "Hypothesis in the development of professional literary criticism and commonality of literary fact: (Based on the scientific interpretation of Bakhtiyor Nazarov)." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.11 (2022): 28-31.